
"PIYOZCHILIK" MAHALLASIDA "OBOD KO'CHA" VA "OBOD XONADON"LAR SONI ORTMOQDA

"Piyozchilik" mahallasida "Obod xonadon, obod ko'cha, obod mahalla" tamoyili asosida ko'cha va xonadonlarda tozalash, ko'kalamzorlashtirish tadbirlari uyushqoqlik bilan o'tkazilmoqda.

Xatlov jarayonida o'rganilda mahalladagi 1029 ta xonadondan 20 tasi "Obod xonadon" mezonini joriy etishga muhtoj bo'lib, shundan kam ta'minlangan xonadonlar soni 12 tani tashkil etgan.

"Obod xonadon" mezonlarini joriy etishga muhtoj 12 ta xonadon bugungi kunda talab darajasiga keltirildi.

Ushbu xonadonlarda oshxona, xojatxona, tandirxona qurildi. Yashash uyi to'liq ta'mirdan chiqarildi. Ayni kunlarda mahalladagi 12 ta kam ta'minlangan oilalar xonadonlarida bunyodkorlik ishlari yakuniga yetmoqda.

2024-03-20 11:51:27